QASHQADARYO VILOYATI
SHAHRISABZ SHAHAR HOKIMINING
Q A R O R I

2021 - yil 23 - oktabr 107-4-209-Q/21 Shahrisabz shahar hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2022 yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 20 oktabrdagi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi 642-son Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash hamda shaharda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun 2022 yilda ish o'rinlarini band qilib qo'yish maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1.Ijtimoiy muhofazaga muhtojlarning soni o‘zgarishiga qarab ular uchun belgilanadigan ish o‘rinlarining eng kam soni va ularga qo‘yiladigan talablarni aniqlash uchun maxsus komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2.Shahrisabz shahar bo‘yicha 2022 yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlari ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun xodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha sonining etti foizidan ortiqini (shu jumladan nogironligi bulgan shahslar uchun uch foizi) miqdorida, bu 100 kishini (2-ilovaga muvofiq) tashkil etadi. Shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshgacha bolalari bo‘lgan va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun 34 foiz (34 kishi);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari 41 foiz (41 kishi);

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar 6 foiz (6 kishi);

nogironlar uchun 5 foiz (5 kishi);

pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 4 foiz (4 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar, 7 foiz (7 kishi);

odam savdosi qurbonlari uchun 3 foiz (3 kishi).

4.Ish beruvchilar ushbu toifa shaxslar uchun ish o‘rinlari xodimlar tomonidan o‘zlarining mehnat majburiyatlarini to‘siqlarsiz bajarishini ta’minlaydigan sanitariya-gigiena normalariga va mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishini ta’minlasin.

Bunda:

nogironlar uchun salomatligi va mehnat faoliyatiga nisbatan qo‘yiladigan belgilangan talablar hisobga olingan holda mehnat vazifasini to‘siqsiz bajarish imkonini beruvchi ish joylari;

yoshlar uchun, ular umumta’lim muassasalarini tamomlaganlaridan keyin ularning kasb-hunar tayyorgarligiga muvofiq keluvchi ish joylari;

14 yoshga to‘lmagan bolalari bor yolg‘iz ota, yolg‘iz onalarga hamda ko‘p bolali ota-onalarga bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bajarishni birga

qo‘shib olib borish imkonini beruvchi, o‘zgaruvchan jadvalli ish joylari;

jazoni ijro etish muasasalaridan ozod qilingan yoki sud qarori bilan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralariga tortilgan shaxslar uchun ularning kasb tayyorgarligi hisobga olingan holdagi ish o‘rinlari.

5.Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar yil boshlanishidan oldin 10 kundan kechikmay muhtojlarni ishga joylashtirish uchun zahiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi miqdorida ish o‘rinlari zaxiraga qo‘yilishi va tayyorgarligini ta’minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar Shahrisabz shahar Aholi bandligiga ko‘maklashish markazini xabardor qilinsin.

6.Muhtojlar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlashi, bu haqda Shahrisabz shahar Aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga birinchi chorak tamom bo‘lganidan so‘ng, 10 kundan kechikmay xabardor qilinsin.

7.Ushbu qarorda nogironlar uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonidan ortiqcha nogironlar uchun ish o‘rinlari tashkil etgan tashkilotlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda imtiyozlar belgilanadi.

8.Muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha Shahrisabz shahar hokimining qarorini bajarmagan korxona, tashkilot va muassasalarning mansabdor shaxsiga, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik belgilanganligi ma’lum qilinsin.

9.Barcha korxona, tashkilot va muassasalar har oyda hisobot oydan keyingi oyning 5-kunigacha Shahrisabz shahar Aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga 3-ilovaga muvofiq shakl bo‘yicha muhtojlarni ishga joylashtirish to‘g‘risida ma’lumot taqdim etsin.

10.O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi (AV ro‘yxat raqami №-3163-son, 31.05.2019-yil) buyrug‘iga asosan, subsidiyalar ajratib berish tartibi amaliyotga joriy etilganligini hisobga olgan holda, “Ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni

kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorida ishga qabul qilgan korxona va tashkilotlarga – har bir xodim uchun 12 oyi davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida haq to‘lash tavsiya etilsin.

11.Shahrisabz shahar Aholi bandligiga ko‘maklashish markaz direktori (O.Primov) bir hafta muddatda, mazkur qarorni qarorning 2-ilovasida ko‘rsatilgan korxona, tashkilot va muassasalarning rahbarlari e’tiboriga yetkazilishini ta’minlasin.

12.Shahrisabz shahar hokimining 2020-yil 24-sentabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2021-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida”gi HQ-1075-09-sonli qarori 2021-yil 31-dekabrdan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

13.Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

14.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Shahrisabz shahar hokimining birinchi o‘rinbosari A.Uzoqov zimmasiga yuklatilsin.

Шаҳрисабз шаҳар ҳокими **Sulaymonov A. I.**

Шаҳрисабз шаҳар ҳокимининг
2021 йил 23 октябрдаги
107-4-209-Q/21-сон қарорига
1-илова

Shahar hokimining 2021-yil
“___” _____dagi
_____ - sonli qaroriga
1-ilova

Ijtimoiy muhofazaga muhtojlarning soni o‘zgarishiga qarab ular uchun belgilanadigan ish o‘rinlarining eng kam soni va ularga qo‘yiladigan talablarni aniqlash uchun maxsus komissiyasi
T A R K I B I

T/R	F.I.Sh	Lavozimi
1	A.Uzoqov	Shahrisabz shahar hokimining birinchi o‘rinbosari, ishchi komissiya raisi
		A’zolari:
2	O.Primov	Shahrisabz shahar Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi direktori, ishchi komissiya raisi kotibi
3	U.Otabaev	Shahrisabz shahar IIB boshlig‘i
4	I.Imomaliev	Shahrisabz shahar mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i

Активация V
Чтобы активирс

Шаҳрисабз шаҳар ҳокимининг
2021 йил 23 октябрдаги
107-4-209-Q/21-сон қарорига
2-илова

Shahar hokimining 2021 yil
“ ” dagi
_____- sonli qaroriga
2-ilova

Shahrisabz shahar bo‘yicha 2022 yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlari to‘g‘risida
MA‘LUMOT

№	Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini belgilash taklif etilayotgan korxona va tashkilotlar ro‘yxati (korxona va tashkilotlarning nomi)	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	Kelgusi yilga zahiraga qo‘yish taklif etilayotgan ish o‘rinlari soni	Shu jumladan						
				Nogiron-lar	Yolg‘iz ota - onalar hamda 14-yosh-gacha va nogiron bolalari bor ko‘p bolali ota-onalar	Ta’lim muassasa-larini tugatgan yoshlar	Muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilganlar safarbarlik chaqiruvi zahirasiga kiritilgan shahslar	Pensiya yoshiga yaqinlashib qolganlar	Jazoni o‘tash muassasa-laridan bo‘shatil-ganlar	Odam savdosidan jabrlan-ganlar
1	Shahrisabz "TEMURBEKLAR MAKTABI"	73	2			2				
2	Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati Shahrisabz shahar bo'limi	99	3		2	1				
3	"MEXANIZATSIYALASHGAN KOLONNA 14" MChJ	79	2				1	1		
4	"SHAHRISABZ VINO-AROQ" AJ	339	2			1	1			
5	Shahrisabz turizm va servis kolleji	23	2		1	1				
6	Shahrisabz shahridagi ishsiz va band bo'lmagan aholini kasb-hunarga o'qitish markazi	67	2	1	1					

№	Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini belgilash taklif etilayotgan korxona va tashkilotlar ro‘yxati (korxona va tashkilotlarning nomi)	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	Kelgusi yilga zahiraga qo‘yish taklif etilayotgan ish o‘rinlari soni	Shu jumladan						
				Nogiron-lar	Yolg‘iz ota - onalar hamda 14-yosh-gacha va nogiron bolalari bor ko‘p bolali ota-onalar	Ta’lim muassasa-larini tugatgan yoshlar	Muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilganlar safarbarlik chaqiruvi zahirasiga kiritilgan shahslar	Pensiya yoshiga yaqinlashib qolganlar	Jazoni o‘tash muassasa-laridan bo‘shatil-ganlar	Odam savdosidan jabrlan-ganlar
7	Shahrisabz Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	118	2		1	1				
8	Shahrisabz shahar barkamol avlod markazi	28	2				1		1	
9	"HISORAKGIDROQURILISH" MChJ	457	7	1	1		1	1	1	2
10	Teri-tanosil kasalliklari shifoxonasi	99	2			2				
11	Shahrisabz shahar 1-son kasb-hunar maktabi	74	2		1	1				
12	Shahrisabz shahar 2-son kasb-hunar maktabi	75	2		1	1				
13	Shahrisabz ShTQOKSD (Obodon Departamenti)	401	20	3	5	2	2	2	5	1
14	16-sonli DMTT	25	2		1	1				
15	11-sonli DMTT	29	2		1	1				
16	30-sonli DMTT	23	2		1	1				
17	2-sonli DMTT	48	2		1	1				
18	31-sonli MTM	26	2		1	1				

№	Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini belgilash taklif etilayotgan korxona va tashkilotlar ro'yxati (korxona va tashkilotlarning nomi)	Shtat jadvali bo'yicha xodimlarning umumiy soni	Kelgusi yilga zahiraga qo'yish taklif etilayotgan ish o'rinlari soni	Shu jumladan						
				Nogiron-lar	Yolg'iz ota-onalar hamda 14-yosh-gacha va nogiron bolalari bor ko'p bolali ota-onalar	Ta'lim muassasa-larini tugatgan yoshlar	Muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilganlar safarbarlik chaqiruvi zahirasiga kiritilgan shahslar	Pensiya yoshiga yaqinlashib qolganlar	Jazoni o'tash muassasa-laridan bo'shatil-ganlar	Odam savdosidan jabrlan-ganlar
19	28-sonli DMTT	34	2		1	1				
20	8-sonli DMTT	25	2		1	1				
21	6-sonli DMTT	36	2		1	1				
22	29-sonli MTT	27	2		1	1				
23	13-sonli DMTT	51	2		1	1				
24	21-sonli DMTT	21	2		1	1				
25	18-sonli DMTT	50	2		1	1				
26	Shahrisabz tuman yuqumli kasalliklar shifoxonasi	142	2			2				
27	Shahrisabz shahar 3-sonli oilaviy poliklinikasi	150	2			2				
28	Shahrisabz shahar 1-sonli oilaviy poliklinikasi	83	2			2				
29	Shahrisabz shahar 2-sonli oilaviy poliklinikasi	136	2			2				
30	94-UO'TM	84	2		1	1				
31	23-UO'TM	60	2		1	1				

№	Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini belgilash taklif etilayotgan korxona va tashkilotlar ro'yxati (korxona va tashkilotlarning nomi)	Shtat jadvali bo'yicha xodimlarning umumiy soni	Kelgusi yilga zahiraga qo'yish taklif etilayotgan ish o'rinlari soni	Shu jumladan						
				Nogiron-lar	Yolg'iz ota-onalar hamda 14-yosh-gacha va nogiron bolalari bor ko'p bolali ota-onalar	Ta'lim muassasa-larini tugatgan yoshlar	Muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilganlar safarbarlik chaqiruvi zahirasiga kiritilgan shahslar	Pensiya yoshiga yaqinlashib qolganlar	Jazoni o'tash muassasa-laridan bo'shatil-ganlar	Odam savdosidan jabrlan-ganlar
32	4-UO'TM	97	2		1	1				
33	1-UO'TM	129	2		1	1				
34	7-IUTMI	62	2		1	1				
35	98-UO'TM	89	2		1	1				
36	25-UO'TM	67	2		1	1				
37	91-UO'TM	72	2		1	1				
38	1-IUTMI	89	2		1	1				
	Jami	**3587**	**100**	**5**	**34**	**41**	**6**	**4**	**7**	**3**

Шаҳрисабз шаҳар ҳокимининг
2021 йил 23 октябрдаги
107-4-209-Q/21-сон қарорига
3-илова

Shahar hokimining 2021-yil
“___” _____dagi
_____- sonli qaroriga
3-ilova

Tashkilot nomi — Aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga taqdim etiladi

Yuridik manzili: — Har oyda hisobot oydan keyingi oyning 5 kunigacha

2022 yil "___"_____oyi uchun ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida
MA‘LUMOT

1. Shahrisabz shahar hokimining qaroriga muvofiq nazarda tutilgan hisobot yilida zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari, shu jumladan, nogironlarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari soni.
2. Zaxiraga qo‘yilgan ish o‘rinlariga ishga joylashtirilganlar soni:

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar soni	**Hisobot davri oxiridagi holati bo‘yicha ishlamoqda (kishi)**	**Ulardan, ishga joylashtirilganlar**	
		hisobot oyida	**Yil boshidan boshlab**
JAMI:			
Shu jumladan:			
O‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar			
Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilar			
Safarbarlik chaqiruvi zahirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar			
Nogironlar va pensiya oldi yoshidagi shaxslar			
Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar			
Odam savdosi qurbonlari			

3. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun bo‘sh ish o‘rinlari soni, hisobot davri oxiriga _____ ish o‘rinlari.

Шаҳрисабз шаҳар ҳокимининг
2021 йил 23 октябрдаги
107-4-209-Q/21-сон қарорига
4-илова







regulation.gov.uz NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR LOYIHALARI MUHOKAMASI PORTALI O'zbek

ҲОКИМ ҚАРОРИ

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2022 yilda ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo'yish to'g'risida

ID-49834

O'zbekiston Respublikasi "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi Qonun *(O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 y., 5-6-son, 97-modda)* va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo'yish tartibi to'g'risida"gi Nizom, *(O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi 11.12.2017 y. 09/17/965/0393-son)*da belgilangan vazifalar ijrosi hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993y., 9-son, 320-modda)* 6-moddasiga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Ijtimoiy muhofazaga muhtojlarning soni o'zgarishiga qarab ular uchun belgilanadigan ish o'rinlarining eng kam soni va ularga

regulation.gov.uz NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR LOYIHALARI MUHOKAMASI PORTALI O'zbek

Nizom, *(O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi 11.12.2017 y. 09/17/965/0393-son)*da belgilangan vazifalar ijrosi hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993y., 9-son, 320-modda)* 6-moddasiga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Ijtimoiy muhofazaga muhtojlarning soni o'zgarishiga qarab ular uchun belgilanadigan ish o'rinlarining eng kam soni va ularga qo'yiladigan talablarni aniqlash uchun maxsus komissiya tarkibi **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Shahrisabz shahar bo'yicha 2022 yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarniishga joylashtirish uchun band qilib qo'yilgan ish o'rinlari ro'yxati **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarniishga joylashtirish uchun xodimlarning ro'yxatdagi o'rtacha sonining 10 foizi miqdorida, bu 100 kishini ***(2-ilovaga muvofiq)*** tashkil etadi. Shu jumladan:

o'n to'rt yoshgacha bolalari bo'lgan va nogiron bolalari bo'lgan yolg'iz va ko'p bolali ota-onalar uchun 34 foiz (34 kishi);

umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilari *41 foiz (41kishi);*

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o'tagan va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar *6 foiz (6 kishi);*

nogironlar uchun *5 foiz (5 kishi);*

pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun *4 foiz (4 kishi);*


| Кабинет E-QAROR.GOV.UZ
(20) Pinterest
project.gov.uz
Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish
regulation.gov.uz/oz/d/49834
regulation.gov.uz
NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR
LOYIHALARI MUHOKAMASI PORTALI
O'zbek
***
30
Muhokama yakunlandi
Umumiy takliflar: 0
Takliflarni ko'rsatish
UZ
19:44
09/10 2021

Шаҳрисабз шаҳар ҳокимининг
2021 йил 23 октябрдаги
107-4-209-Q/21-сон қарорига
5-илова

Shahrisabz shahar hokimining "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2022 yilda ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo'yish tartibi to'g'risida"gi qarori loyihasi O'zbekiston Respublikasining "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi Qonuni, (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998y., 5-6-son, 97-modda) va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo'yish tartibi to'g'risida"gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari to'plami, 2008 y., 34-son, 333-modda)da belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash hamda Shahrisabz shahrida ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun 2022 yilda ish o'rinlarini band qilib qo'yish maqsadida ishlab chiqilgan. Qaror loyihasida havola qilingan qonun hujjatlarining rasmiy manbalari to'g'ri ko'rsatilgan. "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo'yish tartibi to'g'risida"gi Nizomda mahalliy davlat hokimiyatining ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirishni tartibga solish uchun qaror qabul qilish vakolati belgilangan. Shaxrisabz shahar hokimining ushbu qaror loyihasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunchilikka va qonunchilik texnikasi qoidalariga to'liq javob beradi. Mazkur qaror loyihasi O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilish portaliga jamoatchilik muhokamasiga 11.09.2020 yilda qo'yilgan va muhokamadan 26.09.2020 y. da olingan. Qaror loyihasi yuzasidan takliflar kelib tushmagan.

Yuriskonsult **Ismatov M. F.**

Шаҳрисабз шаҳар ҳокимининг
2021 йил 23 октябрдаги
107-4-209-Q/21-сон қарорига
6-илова

“TASDIQLAYMAN”

Hududiy adliya organi rahbari

Umarov O. E.

Shaxrisabz shahri adliya bo'limi tomonidan normativ-huquqiy hujjat loyihasini huquqiy ekspertizadan o‘tkazish yuzasidan

XULOSA

2021 yil

Shahrisabz shahar

O'zbekiston Respublikasi “Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida”gi Qonunining 27-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 13 apreldagi PQ–3666-son qarori bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to'g'risida”gi Nizomiga asosan Shahrisabz shahar hokimining “Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun band qilib qo'yiladigan ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo'yish to'g'risida”gi qarori loyihasi huquqiy ekspertizadan o'tkazilganda quyidagilar

ANIQLANDI:

Mazkur qaror loyihasi “Aholini bandligi to’g’risida»gi Qonunining 39-moddasi va O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o’rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo’yish tartibi tug’risida”gi Nizomda belgilangan vazifalar ijrosidan kelib chiqib ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo'yish tartibi tug'risida”gi Nizomda mahalliy davlat hokimiyatining ushbu ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun qaror qabul qilish vakolati belgilangan. Mazkur qaror loyihasi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalida jamoatchilik muhokamasini o'tkazish uchun qonunchilikda belgilangan tartibda joylashtirilgan va takliflar kelib tushmagan. Shahrisabz shahar hokimining “Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun band qilib qo'yiladigan ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo'yish to'g'risida”gi qarori loyihasi qonunchilik hujjatlariga zid emas.

Yuqoridagilarga binoan, shahar hokimining normativ-huquqiy tusdagi qarori loyihasini huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalari bo'yicha

XULOSA QILAMAN:

Shahrisabz shahar hokimining “Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun band qilib qo'yiladigan ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo'yish to'g'risida”gi qarori loyihasi qonunchilik hujjatlari asosida ishlab chiqilganligi va qonunchilik texnikasi talablariga muvofiqligi qayd etilsin.

Xat *(Ko‘rib chiqilgan)*
Maqsadga muvofiq

Yuklab olish

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
QASHQADARYO VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI
SHAHRISABZ SHAHAR ADLIYA BO'LIMI
181302 Shahrisabz shahri, Ipak yo'li ko` chasi
Tel.: (998 75) 522-98-59, el. pochta: shahrisabz.t.adliya@exat.uz shahrisabz-t@adliya.uz

№ 24-11/314

18 - oktabr 2021

Shahrisabz shahar hokimi

A.I.Sulaymonovga

Sizning 2021 yil 18 oktabr`dagi

xatingiz yuzasidan

Shahrisabz shahar adliya bo'limi shahar hokimining “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2022 yilda ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo'yish to'g'risida”gi qarori loyihasini qonun hujjatlari va qonunchilik texnikasi qoidalariga muvofiqligini bildiradi.

Mazkur qaror qabul qilingandan keyin rasmiy nashrlarda e'lon qilinishi, Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 31 dekabrdagi 355-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining rasmiy veb-saytiga qo'yiladigan asosiy talablar”ga muvofiq mahalliy davlat hokimiyati organining qarori rasman e'lon qilingandan keyin bir kundan kechikmay rasmiy veb-saytiga joylashtirilishi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarining davlat hisobi to'g'risidagi nizom (ro'yxat raqami 1856, 2008 yil 10 sentyabr`) ga muvofiq 3 kun ichida davlat hisobiga olish uchun viloyat adliya boshqarmasiga qog'oz va elektron shakllarda taqdim qilishingiz lozimligi ma'lumot tariqasida ma'lum qilinadi.

Ilova: qaror loyihasi natijasi bo'yicha huquqiy ekspertiza hulosasi.

Shahrisabz shahar adliya

bo'limi boshlig'i: **O.E.Umarov**

Umarov O. E.

Umarov O. E.

18 - oktabr 2021 - yil